Проектирование инновационной деятельности хозяйствующих субъектов в условиях зеленой экономики	1064
Рузиева Мафтуна Юсуфовна, Мактимова Зарафшон Оллоёровна	
Effective use of marketing analytics in green advertising activities of grape growing enterprises	1070
Usmonova Diyora Mahmud kizi	
O'zbekistonda soliq siyosati va xorij soliq siyosatini o'rganib chiqish	1077
Karimova Gulbahor Normurodovna	
Tijorat banklarining investitsion kreditlardagi garov ta'minotini takomillashtirish mexanizmlari	1081
Zaynutdinov Bunyodjon Odiljon o'g'li	
Digital transformation and the impact of modern technologies on agricultural management in Uzbekistan	1085
Asamov Ravshan Bakhodirovich	
"O'zmetkombinat" Ajda marketing faoliyatini takomillashtirish yo'llari	1091
Musayeva Shoira Azimovna	
Подходы к государственной поддержке сельскохозяйственных предприятий с учетом принципов инновационного управления	1096
Шаниязова Замира, Шнибаев Ислам	
Mamlakatda xalqaro turizmni samarali rivojlantirishda turizm siyosatini tashkil etishning istiqbolli yo'nalishlari	1101
Nurfayziyev Zayniddin Boymurodovich	
Raqamli moliya va to'lov tizimlari	1105
Maqsud Rustamov, Nurijahon Valiqulova	
Iqtisodiy tahlilda ishlab chiqarish hajmini prognozlash masalalari	1110
Qlichev Baxtiyor Pardayevich	
Kichik biznesning mintaqaviy iqtisodiyot rivojlanishiga ta'siri: Toshkent viloyati tajribasi	1116
Ajamilova Nigora Asametdinovna	
To'qimachilik korxonalarida xomashyo ta'minoti tizimini boshqarish samaradorligini oshirish	1121
Umarxodjayeva Arafatxon Muzaffar qizi	
Kichik biznes korxonalarida iqtisodiy xavfsizlik masalalarini boshqarish masalalari	1126
Jo'raqulova Muhlisa Jahongir qizi	
Tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar faoliyatini soliq nazorati mexanizmi asosida tartibga solish masalalari	1131
Bozorov Anvar Omanovich	
Tadbirkorlik subyektlarining eksport imkoniyatlarini oshirish masalalari	1139
Umarova Munira Muxitdinovna	



O'zbekistonda sog'lomlashtirish turizmining holati	1143
Naimov Saidjon Yusup o'g'li	
Surxondaryo viloyatida dorivor o'simliklarni yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini baholash.....	1148
Baxriddinova Yulduz Baxriddinovna	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot asosida barqaror rivojlanishni ta'minlashning dolzarb masalalari.....	1155
Axunova Ma'rifat Xakimovna	
Oliy ta'limda sun'iy intellektdan foydalanishni boshqarishning xorijiy mamlakatlar tajribasi	1159
Tajetdinova Gulnara Abatbay qizi	
O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirishda ta'lim va malaka oshirishning roli.....	1166
Madalievna Nodira Miradilovna	
Davlat korxonalari moliyaviy samaradorligining amaldagi holatini kompleks taqqoslama tahlili	1169
Qarshiyev Nodirbek Olim o'g'li	
Xalqaro mehnat migratsiyasi va to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar: samaradorlikni solishtirish	1174
Sultanov Anvar Abdullaevich	
O'zbekiston soliq tizimida hududlararo soliq salohiyatini boshqarish	1180
Aipova Iroda Ikramovna	
Tijorat banklarida komplaens auditni tashkil etish va o'tkazishning uslubiy asoslari.....	1184
Aminova Mehriniso Erkinjonovna	
Scientific approach to the formation of a sustainable development strategy for industrial enterprises in the digital economy.....	1190
Maxsudov Muzaffar Ikromjon ugli	
O'zbekistonda qurilish materiallari sanoati korxonalarining iqtisodiyotdagi o'rni.....	1194
Ubaydullayev Muxammadjon Abdusamad o'g'li	
Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini statistik va ekonometrik tahlil qilish (Andijon viloyati misolida)	1206
Ikromov Axmadjon Shavkat o'g'li	
Перспективы инвесторов в осуществлении инвестиционного процесса	1212
Муртазаев Ардашер Зафар угли	
Transport korxonalarida ishchi xodimlarni barqaror ish o'rinlari bilan ta'minlash boshqaruvini takomillashtirish	1216
Abdullayeva Nigora Shamsiddinovna	
O'zbekiston Respublikasi yengil sanoat tashkilotlarida investitsiya loyihalarni ishlab chiqish va samaradorligini oshirish.....	1221
Xurramova Madina Mansur qizi	
Fuzzy integrals in economics	1228
Aymuratov Islam Kamalatdinovich	
O'zbekistonda ipoteka kreditlari bozorining shakllanishi va rivojlanish tendensiyalari	1233
Abdullayeva Aziza Murot qizi	
Совершенствование денежно-кредитной политики центрального банка в условиях цифровой экономики.....	1238
Бердиназаров Зафар Улашович, Исаев Атабек Джурабаевич	
The role of digital assets in international finance and their impact on the global economy	1248
Juraeva Ra'no Abdullaevna, Murodaliyev Shahroz Obidjonovich	
Diversification of financial resources in commercial banks and their innovative management methods in digital transformation	1255
Xodjayeva Jeyrona Ravshonbek qizi	
O'zbekiston iqtisodiyotida barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari tahlili	1262
Xamdamov Shoh-Jaxon Raxmat o'g'li	
Tijorat banklari aktivlarini boshqarish va daromadligini oshirish masalalari	1268
Saxibjonov Muzaffar Salijanovich	
What is the economic impact of Uzbekistan's integration into international financial institutions.....	1283
Rakhmonova Dildora Ergash Qizi	



Kredit portfelini tahlil qilish asosida tijorat banklari faoliyatini optimallashtirish yo'llari	1289
Jo'rayev Eldor Berdibekovich	
Agrosanoat klasterlarida xarajatlarni moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari asosida hisobga olishni rivojlantrish	1295
Toshpo'latov Azizbek Shermuxamadovich	
Oliy ta'lim tashkilotlarida xarajatlar hisobini takomillashtirish	1300
Xonimqulov Islom Ergash o'g'li	
Oliy ta'lim tizimini samarali tashkil etishda moliyaviy mablag'lardan foydalanish amaliyoti tahlili	1305
Ruzmetova Gulira'no Atabekovna	
O'zbekistonda inflatsion targetlash orqali milliy valyuta barqarorligi ta'minlashning ahamiyati	1308
Shamansurova Zilola Abduvahitovna	
Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz bank tizimining samaradorli ko'rsatkichlari	1314
Erdonayev Aliqul Xalimovich	

**Erdonayev Aliqul Xalimovich**

iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA MAMLAKATIMIZ BANK TIZIMINING SAMARADORLI KO'RSATKICHLARI

Annotatsiya: Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi bank tizimida transformatsiya jarayonlarini tezlashtirib, moliyaviy xizmatlarning samaradorlik ko'rsatkichlariga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu maqolada tijorat banklarining ROA, ROE, NSFR, LCR kabi moliyaviy indikatorlari asosida raqamli texnologiyalar sharoitida bank faoliyati tahlil qilinadi. Raqamli xizmatlar ulushining ortishi va banklararo raqobat kuchayishi fonida bank tizimi samaradorligiga ta'sir etuvchi omillar tahlil etiladi.

Kalit so'zlar: raqamli iqtisodiyot, bank tizimi, samaradorlik ko'rsatkichlari, ROA, ROE, NSFR, LCR, transformatsiya.

Abstract: The rapid development of the digital economy accelerates transformation processes in the banking sector, directly affecting the efficiency indicators of financial services. This article analyzes the performance of commercial banks under digital conditions using key financial indicators such as ROA, ROE, NSFR, and LCR. The study explores the factors influencing banking efficiency amid the growing share of digital services and intensified interbank competition.

Key words: digital economy, banking system, efficiency indicators, ROA, ROE, NSFR, LCR, transformation.

Аннотация: Бурное развитие цифровой экономики ускоряет процессы трансформации в банковской системе, оказывая прямое влияние на показатели эффективности финансовых услуг. В статье рассматривается деятельность коммерческих банков на основе таких финансовых индикаторов, как ROA, ROE, NSFR и LCR в условиях цифровых технологий. Проанализированы факторы, влияющие на эффективность банков в условиях растущей доли цифровых услуг и усиления конкуренции в секторе.

Ключевые слова: цифровая экономика, банковская система, показатели эффективности, ROA, ROE, NSFR, LCR, трансформация.

KIRISH

Globalashuv va texnologik taraqqiyot sharoitida raqamli iqtisodiyotning shakllanishi moliyaviy sektor, xususan, bank tizimi oldiga yangi talab va vazifalarni qo'yimoqda. So'nggi yillarda O'zbekistonda moliyaviy xizmatlar sohasi raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy bank xizmatlarini rivojlantirish va elektron to'lov infratuzilmasini takomillashtirish orqali jadal sur'atlarda modernizatsiya qilinmoqda. Raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi tijorat banklari faoliyatida ham sifat jihatidan yangi bosqichni boshlab berdi. Ayniqsa, bank tizimining samaradorligini baholashda an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda yangi transformatsion indikatorlardan foydalanish zaruriyati ortib bormoqda.

Ushbu maqolada bank tizimi samaradorligini baholovchi asosiy moliyaviy ko'rsatkichlar – aktivlar rentabelligi (ROA), kapital rentabelligi (ROE), barqaror moliyalashtirish koeffitsiyenti (NSFR) va likvidlikni qoplash koeffitsiyenti (LCR) raqamli transformatsiya kontekstida tahlil qilinadi. Shuningdek, banklar faoliyatiga raqamli texnologiyalar ta'sirini baholash orqali moliyaviy barqarorlik va raqobatbardoshlikni ta'minlash yo'llari aniqlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoitida bank tizimi samaradorligini o'rganishda ilmiy adabiyotlar tahlili bank faoliyatining yangi bosqichdagi omillari va ko'rsatkichlarini chuqur anglashga xizmat qiladi. Bu borada J. Stiglitz



raqamli transformatsiya sharoitida moliyaviy institutlar uchun yangi xatarlar va imkoniyatlar shakllanishi, ayniqsa, banklar faoliyatining samaradorligini aniqlovchi ko'rsatkichlar dinamikasini muntazam baholab borish zarurligini urg'ulagan. Unga ko'ra, raqamli texnologiyalarni joriy etish moliyaviy barqarorlikka ijobiy ta'sir ko'rsatadi, biroq bu o'zgarishlar har doim ham samaradorlikning oshishiga olib kelmasligi mumkin, chunki xatarlar strukturasi ham o'zgarib boradi.

Ph. Molyneux va J. Thornton o'z tadqiqotlarida ROA va ROE ko'rsatkichlarini banklar samaradorligini baholashdagi asosiy indikatorlar sifatida tahlil qilib, bu ko'rsatkichlar raqamli texnologiyalar joriy etilganidan keyingi davrda sezilarli darajada o'zgarishga uchraganini ilmiy asoslagan. Ayniqsa, ular Yevropa va Osiyo davlatlari misolida bank sektorida transformatsiyalarning moliyaviy natijalarga ta'sirini tahlil qilgan.

R. Levine moliyaviy vositachilik va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni tahlil qilar ekan, banklarning samarali faoliyat yuritishi iqtisodiy taraqqiyotga bevosita ta'sir ko'rsatishini qayd etadi. U bank tizimining zamonaviy raqamli iqtisodiyotda ishtirokini makroiqtisodiy barqarorlik uchun hal qiluvchi omil sifatida talqin qilgan.

O'zbekistonda bu yo'nalishda olib borilgan ilmiy ishlarda A. A. Xodjayev tijorat banklari faoliyatini iqtisodiy samaradorlik mezonlari orqali tahlil qilishda raqamli xizmatlarning o'ri tobora ortib borayotganini ko'rsatadi. Unga ko'ra, moliyaviy ko'rsatkichlarning tahlili raqamli xizmatlar ulushining ortishini banklarning umumiy daromadlilikiga bevosita ta'sir qiluvchi omil sifatida ko'rsatmoqda.

Shuningdek, N. A. Mamajonov va I. M. Abdullayeva o'z izlanishlarida banklar transformatsiyasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining strategik ahamiyatini tahlil qilgan. Ular tijorat banklari samaradorligini oshirishda NSFR va LCR kabi likvidlik ko'rsatkichlarining raqamli platformalar orqali boshqarilishini zamonaviy yondashuv sifatida tavsiya etgan.

Ushbu adabiyotlar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, bank tizimining samaradorlik ko'rsatkichlari nafaqat an'anaviy moliyaviy indikatorlar bilan, balki raqamli texnologiyalarni joriy etish darajasi bilan ham chambarchas bog'liq. Transformatsiya jarayonining muvaffaqiyati esa aynan ushbu ikki omil o'rtasidagi uyg'unlikka asoslanadi.


TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda ma'lumotlar O'zbekiston Markaziy banki statistik hisobotlari, tijorat banklarining yillik moliyaviy hisobotlari hamda Jahon banki va Xalqaro valyuta jamg'armasi ma'lumotlaridan olindi. Olingan ko'rsatkichlar dinamik va taqqoslamali tahlil usullari orqali o'rganilib, raqamli transformatsiyaning bank tizimi samaradorligiga ta'siri baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tijorat banklari faoliyatining samaradorligini an'anaviy usulda tahlil qilishda bir necha moliyaviy ko'rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu ko'rsatkichlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Aktivlar qaytimi (ROA);
- Kapital qaytimi (ROE);
- Jami xarajatlarning jami aktivlarga nisbati (TC/TA);
- Jami xarajatlarning jami daromadlarga nisbati (TC/TR);
- Operatsion xarajatlarning operatsion daromadlarga nisbati (OE/OR) (1-rasm).



1-rasm. Tijorat banklari xarajatlarning samaradorlik ko'rsatkichilari.




Tijorat banklari tomonidan zamonaviy texnologiyalarni bank faoliyatida keng joriy etish orqali bank biznesini avtomatlashtirish, mahsulot va xizmatlarni raqamli kanallar orqali ko'rsatish, iste'mol kreditlari hamda mikroqarzlarni ajratilishi, omonatlarni jalb etish, valyuta ayirboshlash va pul o'tkazmalari xizmatlarining salmoqli qismini aynan mobil ilovalar orqali amalga oshirish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

So'nggi paytlarda tijorat banklarining oladigan daromadlari strukturasi e'tibor qaratilsa, iste'mol kreditlari va mikro kredit qarzlaridan olinadigan daromadlar salmog'i ortib bormoqda. Bu holat banklar tomonidan ushbu operatsiyalarni amalga oshirishga yangi texnologiyalar jalb qilinishi, ya'ni mijozlar uchun qulay masofaviy bank xizmatlarining joriy etilishi bilan izohlanadi.

2021-yil yakunlariga ko'ra, tijorat banklari faoliyatida yuzaga kelgan kredit yo'qotishlari bilan bog'liq xatarlarni kamaytirish va shu orqali mamlakatimiz moliyaviy barqarorligiga salbiy ta'sirini yumshatish maqsadida muammoli kreditlar bo'yicha zaxiralar shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi. Tijorat banklari o'z daromadlarining katta qismini kreditlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarga qarshi zaxiralar shakllantirishga yo'naltirdilar.

Shu o'rinda ta'kidlab o'tish zarurki, bir tomondan, tijorat banklari kredit portfelida muddati o'tgan kreditlar salmog'ining o'sishi bank daromadlarining kamayishiga olib keladi, ikkinchi tomondan esa muammoli kreditlar bo'yicha zaxiralar shakllantirilishi ham daromadlarning pasayishiga sabab bo'ladi. Pirovardida esa banklarning foydasi kamayadi (2-rasm).



2-rasm. Tijorat banklari aktivlar rentabelligi (ROA) ko'rsatkichlari.

Bu o'z navbatida tijorat banklarining kapital rentabelligi ko'rsatkichiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu oqibatlarni yumshatish maqsadida bank daromadlilikini oshirish uchun yangi bank texnologiyalarini joriy etish talab etiladi.


2020–2025-yillarga mo'ljallangan "O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi"ga 2020-yildan beri xalqaro moliya institutlari (asosan: XMK, YeTTB va OTB) hamda xorijiy konsalting kompaniyalari (asosan: KPMG, PWC va Ernst & Young) bilan hamkorlikda davlat ulushi mavjud banklarni transformatsiya qilish va ularni xususiy sektorga topshirish jarayonlari davom etmoqda. Hukumat tomonidan amalga oshirilayotgan islohotlar samaradorligini oshirish hamda belgilangan strategik maqsadlarga erishish uchun tijorat banklari faoliyatini qayta tashkil etish, ya'ni ularning faoliyatini korporativ yo'nalishdan chakana bank xizmatlarini kengaytirish yo'nalishiga o'tkazish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda.

Bazel qo'mitasining tavsiyalari asosida bank nazorati mexanizmi Markaziy bank tomonidan kuchaytirildi.

Mamlakatimiz tijorat banklarida boshqaruv organlarining vakolatlarini aniq taqsimlash, bank boshqaruvida shaffoflikni oshirish, banklar faoliyatida yuzaga keladigan tavakkalchilik xatarlarini kamaytirish, kiberxavfsizlikni ta'minlash hamda manfaatlar to'qnashuvini bartaraf etish maqsadida bir qator islohotlar amalga oshirildi. Xususan, tijorat banklarining tashkiliy tuzilmalari, operatsion va biznes modellari, mijozlarga korporativ hamda chakana bank xizmatlari ko'rsatish yo'nalishlari qayta ko'rib chiqildi. Shuningdek, bank kengashlarining javobgarligini oshirish va ular tomonidan samarali nazoratni ta'minlash uchun kengashlar huzurida mustaqil audit va kredit qo'mitalari tashkil etildi.



Tijorat banklari kapital rentabelligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri bank kapitali hajmi bo'lsa, ikkinchisi esa riskli aktivlarning jami aktivlarga nisbati hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkichlar kapital rentabelligiga to'g'ri mutanosib ravishda ta'sir qiladi. Mamlakatimiz tijorat banklarida riskli aktivlar hajmining o'zgarishi qanday qilib banklar kapitali rentabelligiga ta'sir qilishi quyida tahlil qilingan (3-rasm).




3-rasm. O'zbekiston bank tizimi kapital rentabelligi darajasi (foizda)¹.

2023-yilda jami kapital monandlik koeffitsiyenti hamda I darajali kapital monandlik koeffitsiyentida biroz kamayish kuzatildi. Tavakkalchilikka tortilgan aktivlar hajmining o'sish sur'ati jami regulativ kapital hamda I darajali kapitalning o'sish sur'atidan yuqori bo'lgani hisobiga ushbu ko'rsatkichlarda pasayish tendensiyasi kuzatildi. Xususan, 2023-yilda jami kapital monandlik koeffitsiyenti 0,3 foiz bandga, I darajali kapital monandlik koeffitsiyenti esa 0,4 foiz bandga pasaydi.

2024-yilning 1-yanvar holatiga ko'ra, banklarning jami kapital monandlik koeffitsiyenti 106 trln so'mga, I darajali kapital monandlik koeffitsiyenti esa 85 trln so'mga yetdi. Bunda kapitalning qariyb 80 foizini yuqori sifatli kapital tashkil qilmoqda.

Aktivlar rentabelligi (ROA) deyarli o'zgarishsiz shakllandi. 2023-yil yakunida ROA ko'rsatkichi 2,6 foizni tashkil etdi. ROA dekompozitsiyasiga ko'ra, tijorat banklari ROA shakllanishida sof foizli va foizsiz daromadlar hissasi yuqori bo'lgan. Operatsion xarajatlar hamda aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlar esa ROA ko'rsatkichining pasayishiga ta'sir ko'rsatgan (4-rasm).



4-rasm. O'zbekiston bank tizimi kapital rentabelligi ta'minlash holati (mlrd.so'mda va foizda)².

1 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти www.cbu.uz маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.


2 Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти www.cbu.uz маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.



2023-yilda sof barqaror moliyalashtirish me'yori koeffitsiyenti (NSFR) pasayish tendensiyasiga ega bo'ldi. 2023-yilda bank tizimi bo'yicha NSFR ko'rsatkichi 4 foiz bandga qisqarib, 112 foizni tashkil etdi. Ushbu holat bank tizimining uzoq muddatli aktivlarni barqaror manbalar hisobidan moliyalashtirish imkoniyati pasayib borayotganini ko'rsatdi.

Tizimli ahamiyatga molik banklarning NSFR ko'rsatkichlari quyi 25-protsentil chegarasiga yaqin barqaror shakllanib kelmoqda. 25 va 75-protsentil chegaralari oralig'ida joylashgan banklarning NSFR ko'rsatkichlari orasidagi tarqoqlik kengayib bormoqda. 2023-yil yakunida tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha NSFR ko'rsatkichi 110 foizni tashkil etdi. Bank tizimi hamda tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha NSFR ko'rsatkichlari banklarning median qiymatidan past darajada saqlanib kelmoqda.

2023-yilda bank tizimi bo'yicha likvidlikni qoplash me'yori koeffitsiyentida (LCR) pasayish tendensiyasi kuzatildi. 2023-yilda LCR ko'rsatkichi 47 foiz bandga kamayib, 165 foizni tashkil etdi. Mazkur pasayish banklardagi yuqori likvidli aktivlar hajmining 2023-yilda 7 foizga kamayishi bilan izohlanadi. Tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha LCR ko'rsatkichlari 25 va 75-protsentilning quyi chegarasida shakllanishda davom etdi. Tizimli ahamiyatga molik banklar bo'yicha LCR ko'rsatkichi 2023-yil oxiriga kelib 141 foizni tashkil etdi. Banklarning LCR bo'yicha medianasi 213 foizga teng bo'lishi, aksariyat tijorat banklarining ushbu ko'rsatkichi 25-protsentil chegarasidan past darajada joylashganligini anglatadi. LCR ko'rsatkichining salbiy tendensiyasi likvidlik shoklari sharoitida banklarda majburiyatlarni yo'qotishlarsiz o'z vaqtida bajarishda zaifliklar yuzaga kelishi mumkinligini ko'rsatadi (5-rasm).



5-rasm. Banklarning ROA ko'rsatkichi (1999-2021 yy)³.

Banklar samaradorligini baholovchi yana bir ko'rsatkich – ROE (kapital rentabelligi) – investitsiya kiritish uchun qoniqarli bo'lishi kerak⁴. 10 foizdan past ROE ko'rsatkichi, odatda, investitsiya qilish uchun jozibali hisoblanmaydi. S&P 500 indeksi iqtisodiyotning turli sohalarida faoliyat yurituvchi korxonalarni o'z ichiga olgani sababli ushbu ko'rsatkichni banklar uchun to'g'ridan-to'g'ri tadbiiq etish unchalik maqbul emas. Shuningdek, mazkur indeks AQShda listingdan o'tgan korxonalarni qamrab oladi.


O'zbekistonda 2020–2023-yillarda faoliyat yuritgan tijorat banklarining o'rtacha ROE ko'rsatkichi 15 foiz atrofida bo'lgan. Tahlil davrining boshida mamlakatimiz tijorat banklari kapital rentabelligini yuqori darajada saqlab turgan edi. Biroq tahlil davomida bu ko'rsatkich sezilarli darajada pasayish tendensiyasini namoyon etdi. Bu esa banklar faoliyatidagi muayyan ichki omillar yoki tashqi iqtisodiy sharoitlar bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

3 Ханнаев Ш.Қ. "Тижорат банклари фаолияти самарадорлигини баҳолашни такомиллаштириш" иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илм. дар. ол.уч. дисс. – Т.: БМА. 2020. – 181 б. ва Ўзбекистон Республикаси Марказий банкининг расмий сайти www.cbu.uz маълумотлари асосида муаллиф томонидан тузилди.

4 'Return on Equity – ROE Definition' <<https://www.investopedia.com/terms/r/returnonequity.asp>> «6», «2»], «id»: «ITEM-1», «issued»: {«date-parts»: [[«0»]], «title»: «Return on Equity – ROE Definition», «type»: «webpage», «uris»: [«http://www.mendeley.com/documents/?uid=a6a606df-f47b-3586-8206-ff4dee346f65»]], «mendeley»: {«formattedCitation»: «Return on Equity – ROE Definition' <<https://www.investopedia.com/terms/r/returnonequity.asp>> [accessed 2 June 2020].», «plainTextFormattedCitation»: «Return on Equity – ROE Definition' <<https://www.investopedia.com/terms/r/returnonequity.asp>> [accessed 2 June 2020].», «previouslyFormattedCitation»: «Return on Equity – ROE Definition' <<https://www.investopedia.com/terms/r/returnonequity.asp>> [accessed 2 June 2020].», «properties»: {«noteIndex»: 85, «schema»: «https://github.com/citation-style-language/schema/raw/master/csl-citation.json»}}



Bunday pasayishning bir qator sabablari mavjud. Ulardan biri, albatta, pandemiya bilan bog'liq bo'lsa, so'nggi yillarda banklararo raqobatning kuchayishi natijasida tijorat banklari bozorga moslashish va mijozlarini yo'qotmaslik uchun katta hajmdagi kapital xarajatlarga duch keldi. Shu bilan birga, mahsulot va xizmatlarini sezilarli darajada qayta ko'rib chiqishlariga to'g'ri keldi (6-rasm).



6-rasm. Tijorat banklarining TC/TR ko'rsatkichlari.

Yuqorida qayd etilgan makroiqtisodiy ko'rsatkichlar tijorat banklari samaradorligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlar bo'lib hisoblanadi. Mikroiqtisodiy darajada esa har bir alohida olingan tijorat bankining xususiyatlaridan kelib chiqib, uning samaradorligini aniqlash mumkin. Bu esa, o'z navbatida, har bir tijorat bankini rivojlantirish strategiyasi, ya'ni uni zamon talablariga mos ravishda transformatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqishni talab qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimiz tijorat banklari faoliyatining samaradorlik ko'rsatkichlari bank tizimidagi transformatsion jarayonlarning qamrovini, moliyaviy barqarorlikni ta'minlash mexanizmlarini va sohadagi raqobat muhitining sifat o'zgarishini yaqqol ifodalaydi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, oxirgi yillarda banklar faoliyatida raqamli texnologiyalarni keng joriy etish, masofaviy xizmat turlarini rivojlantirish va mijozlar ehtiyojlariga tezkor moslashuv banklarning daromadlilik darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bilan birga, ROA, ROE, NSFR, LCR kabi asosiy ko'rsatkichlardagi o'zgarishlar sektor ichidagi muvozanat va xatarlar darajasini baholashda muhim indikator bo'lib xizmat qilmoqda.

Banklar samaradorligiga ta'sir ko'rsatuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillar uyg'unligida har bir tijorat banki o'z faoliyat strategiyasini qayta ko'rib chiqib, transformatsiya jarayonlarini chuqurlashtirishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, nafaqat moliyaviy ko'rsatkichlarning barqarorligini ta'minlash, balki zamonaviy iqtisodiyot talablariga javob beruvchi raqobatbardosh bank tizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Stiglitz J. The Role of the State in Financial Markets. – World Bank, 1993.
2. Molyneux Ph., Thornton J. Determinants of European Bank Profitability: A Note. – Journal of Banking & Finance, 1992.
3. Levine R. Financial Development and Economic Growth: Views and Agenda. – Journal of Economic Literature, 1997.
4. A. A. Xodjayev. Bank faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholash metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-Moliya, 2020.
5. N. A. Mamajonov, I. M. Abdullayeva. Raqamli transformatsiya sharoitida tijorat banklari faoliyatini takomillashtirish yo'llari. – TDIU ilmiy jurnali, 2022.
6. Mishkin F. S. The Economics of Money, Banking, and Financial Markets. – Pearson Education, 2016.
7. Allen F., Carletti E. The Roles of Banks in Financial Systems. – Oxford Handbook of Banking, 2010.
8. Claessens S., Laeven L. What Drives Bank Competition? Some International Evidence. – Journal of Money, Credit and Banking, 2004.
9. Demirgüç-Kunt A., Huizinga H. Determinants of Commercial Bank Interest Margins and Profitability: Some International Evidence. – World Bank Economic Review, 1999.
10. Котсар, Ю. Facebook урнига банк. [Электрон ресурс]. – УРЛ: https://www.gazeta.ru/tech/2014/04/14_a_5992109.shtml (кириш санаси: 18.06.2017).



11. Ключников И.К., Молчанова О.А., Ключников О.И. Катта маълумотлар молия: назария ва амалиёт. Молия ва бизнес. -2017 йил. - № 4. - С. 105-116.
12. Fenwick, N. The 2016 Guide to Digital Predators, Transformers, And Dinosaurs. The Benchmark: The CIO Digital Business Transformation Playbook. 2016. – 209 p.
13. Ashta A. Biot-Paquerot G. FinTech evolution: Strategic value management issues in a fast-changing industry // Briefings in entrepreneurial finance. Volume 27, Issue 4. July 2018. – 301-311 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 2

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
